O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING
QARORI

2024-yil 25-iyul | 402-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish, belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda ovqatlantirishni tashkil etish orqali bolalarning sog‘lom va barkamol o‘sishini ta’minlash, sog‘lom ovqatlantirishning zamonaviy usullarini joriy etgan holda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida:

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 407-sonli qarori bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga taomlarni yetkazib berish xizmati (keytering) tizimini joriy etish ko‘zda tutilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi hamda Farg‘ona va Quvasoy shahar hokimliklarining Quvasoy shahar, Pakana MFYda joylashgan **“Garden catering” qo‘shma korxonasi** tomonidan belgilangan tartibda tayyorlangan taomlarni yetkazib berish xizmati (keytering) tizimini joriy yil 1-avgustdan Quvasoy shahridagi Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (ovqatlantirishning autsorsing usuli tashkil etilmagan) joriy qilish hamda tajriba-sinov natijalariga ko‘ra yil yakuniga qadar Farg‘ona shahridagi Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joriy etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Keytering usulida ovqatlantirishni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari asosida amalga oshirilsin. Bunda:

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keytering usulida ovqatlantirishni tashkil etish “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar” (SanQvaN) asosida amalga oshirilishi;

Keytering xizmati tashkil etgan korxona tomonidan xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, foydalaniladigan texnologik jihozlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini, oshxona xodimlari tomonidan taom tayyorlash texnologiyasi qoidalariga rioya qilinishiga, oshpazlarning har uch yilda kamida bir marta malaka oshirishiga, o‘rnatilgan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tgan holda ishga qo‘yilishiga shaxsan mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

4. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish ilovada keltirilgan tartib asosida amalga oshirilsin.

5. Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosari (Sh.Raximov), viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (E.Malikov), viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (B.Ikromqulov) Farg‘ona shahar (V.Nazarov) va Quvasoy shahar (Z.To‘raqulov) hokimliklari bilan birgalikda:

bir nafar tarbiyalanuvchining kunlik ovqatlantirish xarajatlarini sanitariya me’yorlari hamda hududiy bozor narxlaridan kelib chiqqan holda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda belgilash;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun “Garden catering” qo‘shma korxonasida tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari, yarim tayyor va tayyor taomlarni saqlanishi hamda tashkilotlarga yetkazib berilishida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilinishini doimiy nazoratga olish;

Quvasoy shahar, Pakana MFYda joylashgan **“**Garden catering” qo‘shma korxonasi tomonidan joriy yil yakuniga qadar ovqatlantirishning autsorsing usuli tashkil etilmagan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish hamda natijasi bo‘yicha mazkur tizimni boshqa hududlarda tashkil etish bo‘yicha asoslangan takliflarni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachiga kiritilishini ta’minlasinlar.

6. Farg‘ona viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (M.Saydullayev) Farg‘ona (V.Nazarov) va Quvasoy (Z.To‘raqulov) shaharlar hokimliklari bilan birgalikda keytering usulida ovqatlantirish tashkil etilayotgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oshpaz va oshxona ishchilari shtat birliklarini belgilangan tartibda qisqartirish hamda mehnat shartnomasi bekor qilinadigan xodimlarni muassasalarda ovqatlantirishning keytering usulini amalga oshirayotgan korxonalarga ishga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

7. Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov) Farg‘ona shahar (V.Nazarov) va Quvasoy shahar (Z.To‘raqulov) hokimliklari bilan birgalikda Farg‘ona va Quvasoy shaharlarida keytering faoliyatini tashkil etish uchun zarur mablag‘larni

asoslantirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra mahalliy byudjet parametrlarida ushbu maqsadlarga ko‘zda tutilgan mablag‘lar hamda energiya resurslari xarajatlarini tejash hisobiga iqtisod qilinadigan mablag‘lar doirasida, shuningdek ota-onalar to‘lov pullari va qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yo‘naltirilishini ta’minlasinlar.

8. Farg‘ona viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Dolimov) hududiy bo‘limlar bilan birgalikda keytiring tizimi asosida ovqatlantirishga o‘tkazilayotgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari oziq-ovqat omborlaridagi mavjud mahsulotlarni boshqa shahar va tumanlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga belgilangan tartibda beg‘araz o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

9. Mazkur tizim asosida ovqatlantirish joriy etilayotgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog‘lom va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarning xavfsizligi, shuningdek sifatini kafolatlash tegishli keytiring korxonasi zimmasiga yuklatilsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (S.Jo‘rayev) keytiring tizimi asosida ajratilayotgan byudjet mablag‘larini maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilinishini ta’minlasin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 25-iyuldagi
402-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keytyering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish
TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda tashkilot deb ataladi) keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiriladi.

3. Ushbu Nizom talablari tashkilotlarda keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi mahalliy va xorijiy tadbirkorlik subyektlariga taalluqli hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom ovqatlantirishning keytering usulini joriy etish ustuvor hisoblanadi.

2-bob. Keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsad va vazifalari

4. Tashkilotda keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

tarbiyalanuvchilarni to‘laqonli sog‘lom ovqatlantirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash va ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni ta’minlash;

sifatli taomlar tayyorlash orqali tarbiyalanuvchilarning sog‘lom va barkamol o‘sishini ta’minlash;

taomlarni tayyorlash va iste’molga yetkazib berilishi uchun gigiyenik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish;

tarbiyalanuvchilarni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq sog‘lom ovqatlantirish;

tashkilotlar direktorlarini ta’limga oid bo‘lmagan vazifalardan ozod qilish va ta’lim samaradorligini oshirish.

5. Keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini inobatga olgan holda, ularning ratsional ovqatlanishini ta’minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarni tarbiyalanuvchilarning sog‘lom o‘sishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan zarur moddalar bilan ta’minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarning xavfsizligi hamda sifatini kafolatlash;

tarbiyalanuvchilarda ovqatlanish bilan bog‘liq yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik;

tarbiyalanuvchilar o‘rtasida to‘g‘ri ovqatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarni tayyorlashda hamda oziq-ovqat xom ashyosini saqlashda, tashishda sanitariya normalari va qoidalariga qat’iy rioya qilish.

3-bob. Keytering usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablar

6. Keytering usulida sog‘lom ovqatlantirish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari asosida amalga oshiriladi.

7. Tarbiyalanuvchilarni sog‘lom ovqatlantirish, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan kelishilgan holda tasdiqlangan namunaviy mavsumiy taomnomalar asosida tashkil qilinadi.

8. Keytering xizmati ko‘rsatayotgan tashkilot xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, foydalaniladigan texnologik jihozlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini, oshxona xodimlari tomonidan taom tayyorlash texnologiyasi qoidalariga rioya qilinishiga, oshpazlarning har uch yilda kamida bir marta malaka oshirishiga, o‘rnatilgan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tgan holda ishga qo‘yilishiga shaxsan mas’ul hisoblanadi.

4-bob. Keytering huquq va majburiyatlari

9. Keytering xizmati ko‘rsatuvchi quyidagi huquqlarga ega:

ko‘rsatgan xizmatlar uchun to‘lovni shartnomada belgilangan miqdor va muddatda talab qilish.

boshqa huquqlari ham bo‘lishi mumkin.

10. Keytering xizmati ko‘rsatuvchi quyidagilarga majbur:

tashkilotlar oshxonalarida o‘z faoliyatini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilarni sog‘lom ovqatlantirish xizmatini to‘liq va sifatli tashkil etish;

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tomonidan belgilangan texnik vazifalar asosida keytering usulida tashkilotda sogʻlom ovqatlantirishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish va taqdimotini oʻtkazish;

taomlar tayyorlash texnologiyasi boʻyicha mutaxassislar (injener-texnolog, diyetolog, oshpazlar malaka razryadlari) bilan taʼminlash;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga amal qilinishini taʼminlash tadbirlarini amalga oshirish;

taomnomalar, tayyor taomlarning vazni, narxi, tarkibidagi mahsulotlar miqdorlari, texnologik kartalarning mavjudligini taʼminlash;

bir nafar tarbiyalanuvchini sogʻlom ovqatlantirish uchun yil davomida sarflanadigan mablagʻlar miqdorini asoslantirilgan holda koʻrsatish;

taom tayyorlash uchun sarflangan xarajatlarni (oshxona va oshxona jihozlarini umumiy ovqatlanishni tashkil qilish sohasidagi ish tajribasi hamda boʻsh aylanma mablagʻlari mavjudligi;

Keytering xizmati koʻrsatuvchi korxonaga tashkilotning hududiy joylashuvi va ixtisoslashuvi hamda texnik vazifalaridan kelib chiqib qonunlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

5-bob. Keytering faoliyatini tashkil etish

11. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi bilan Keytering oʻrtasidagi shartnoma bir yil muddatga tuziladi.

12. AgarKeytering tomonidan oʻz faoliyatini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshirganda, kuzatuv kengashi va ota-onalar tomonidan eʼtirozlar boʻlmaganda, shartnoma muddati kelgusi yillarga uzaytirilishi mumkin.

Bunda ota-onalar oʻrtasida xar chorakda bir marta oʻtkaziladigan soʻrovnomalar natijalari hisobi yuritilishi va yuzaga kelgan eʼtirozlar mavjud holda ishchi guruhi joyiga chiqib oʻrganilishi natijalari qatʼiy hisobi yuritilib xulosa chiqariladi.

13. Keytering usulida ovqatlantirish tashkil etiladigan tashkilotlarda bolalarni ovqatlantirishni moliyalashtirish ota-onalar toʻlov pullari, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari, homiylik mablagʻlari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Bunda keytering usulida ovqatlantirish tashkil etilgan tashkilotdagi mavjud oshpaz, oshxona ishchilari shtat birliklari belgilangan tartibda qisqartiriladi.

14. Keytering xizmati koʻrsatayotgan korxona tomonidan tayyorlab berilayotgan taomlar sifati, vazni, tarkibining taomnomaga muvofiqligi tashkilot direktori, hamshira, ota-onalar vakillaridan iborat Brakeraj komissiyasi tomonidan nazorat qilinadi va nazorat

yakunlari tashkilotning tayyor taomlar sifatini nazorat qilish boʻyicha yuritilgan ushbu brakeraj daftarida har kuni qayd qilib boriladi.

Brakeraj komissiyasi kyeyteringxizmati koʻrsatayotgan korxonatomonidan tayyorlab berilayotgan taomlar sifati, vazni, tarkibining taomnomaga nomuvofiqligi aniqlanganda, tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimiga bildirgi kiritadi.

15. Keytering xizmati koʻrsatayotgan korxona faoliyatini oʻrganish uchun tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimiboʻlimlari bildirgi asosida viloyat xokimligi bilan kelishgan holda taom tayyorlash boʻyicha mutaxassislarni jalb qilib, ishchi guruh tashkil qiladi, oʻrganadi va natijasini viloyat xokimligiga taqdim qiladi.

16. Keytering xizmati koʻrsatayotgan korxona tomonidan sanitariya qoidalari va meʼyorlari bajarilishi holatining monitoringini olib borish hamda kunlik sinamalar olish tashkilot tibbiyot xodimi zimmasiga yuklanadi.

17. Keytering xizmati koʻrsatayotgan korxona tomonidan sogʻlom ovqatlantirishni tashkil etishda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishi, oshxona xodimlarining sanitariya-gigiyena tadbirlari bajarilishini nazorat qilish tuman (shahar) sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boʻlimi tomonidan amalga oshiriladi.

18. Keytering xizmati koʻrsatayotgan korxona har kuni asosiy taomnomaning bir nusxasini tashkilot rahbariga taqdim etadi (maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbari kunlik taomnomalarni brakeraj komissiyasiga taqdim qilinishiga masʼul) va bir nusxasini tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimiga har oʻn kunda hisobot bilan topshiradi.

19. Taomnomada tayyor taomlar vazni, narxi, sarflangan mahsulotlar turi va ularning miqdorlari koʻrsatiladi.

20. Oshxona va oshxona jihozlarini taʼmirlash, xodimlar ish haqi, oshxona jihozlari, oshpazlar uniformasi, oshxonada ishlatiladigan zararsizlantiruvchi va yuvish vositalari bilan taʼminlash ishlari Keytering tomonidan amalga oshiriladi.

21. Keytering har oʻn kunda tasdiqlangan taomnomalar nusxalari va koʻrsatilgan xizmatlar boʻyicha hisob-faktura hujjatlarini, tashkilot direktori tomonidan tasdiqlangan buyurtmani tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi markazlashtirilgan buxgalteriyasiga taqdim etadi.

22. Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari tomonidan kyeytering usulida ovqatlantirishni amalga oshirilishi jarayonidan kelib chiqib, mazkur tartibga maʼsul idoralarning asoslangan xulosalariga koʻra oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilishi mumkin.